

ABDULLOH IBN YUSUF IBN HISHAM AL-ANSORIYNING "QOTRUN NADA
BALLIS SODA QO`LYOZMASI MATNLARI O`RTASIDAGI TAFOVUTLAR.

Jalolova Dildora Saydirahmon qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Jo`rabyoyev O

Qo`lyozma yodgorliklarni ilmiy muomalaga kiritish, ommmalashtirishilari manbashunoslik sohasida doimo dolzarb bo`lib kelgan. Qo`lyozmalarni tadqiq qilish, o`rganish, undan manfaat olishning asosini – qo`lyozmalarni matniy jihatdan o`rganish tashkil qiladi. Matnshunoslikning mohiyati qo`lyozma yodgorliklarini qayta hayotga qaytarish, uning ilmiy-taqnidiy matnnini tayyorlashdan iborat. Arab nahvini o`rganishda ham qadimiy qo`lyozmalarni manba sifatida ilmiy jihatdan o`rganish, matniy tadqiq qilish, qo`lyozmalar orasidagi tafovutni o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulloh ibn Yusuf ibn Hisham al-Ansoriy²ning قطر الندي و بل الصدي Qotrun nada ballis soda qo`lyozmasi ham XIV asrda yozilgan, XVI-XVII asrlarda ko`chirilgan qadimiy qo`lyozma bo`lsada hozirgi zamон arab nahvida o`rni nihoyatda yuqori. Muallif bilan zomondosh bo`lgan fan olimlari, nahvshunoslар tomonidan ham yuksak e`tirofga sazovor bo`lgani va unga ko`plab sharhlar³ yozilganligi ham qo`lyozmaning naqadar ahamiyatlì ekanligini yaqqol isbotidir. Shu sababdan ham qo`lyozmaning nusxalari, ular orasidagi farq va o`xshash jihatlar, uning ilmiy matni ustida olib boraladigan ishlarning ham soha bo`yicha o`rni beqiyos. Hozirgi kunda Qotrun nada qo`lyozmasining ikkita mashhur nusxasi bo`lib, ular:

1. Saudiya Arabistonи Malik Saud Universitetidagi 5478 raqamli, 55 varoqdan iborat Xattot Jadulloh ibn Abu Bakr tomonidan 977-hijriy yilda ko`chirilgan qo`lyozma nusxasi;

2. Kuvaytning Avqoful Kuvayt kutubxonasiдagi 136-raqamli 79 varoqdan iborat Xattot Yusuf Abdur rohman tomonidan hijriy 1257-yilda ko`chirilgan nusxasi;

Qo`lyozmaning ilmiy matnnini nahv toliblariga yetkazishda Muhammad Muhiddin Abdulhamidning ishlari beqiyos bo`lib, u matn tuzishda ikkala qo`lyozma matnlarini harfma-harf solishtirganini va qo`lyozma matnlarida katta farqlar yo`qligini, o`rtasidagi tafovut faqatgina juziy bo`lib, farqlar ichida ma`noni mutlaq o`zgartirib yuboruvchi, yoki matndan ko`zlangan maqsaddan chalg`ituvchi farqlar yo`q ekanligini takidlaydi. Ulardan ba`zilarini ko`rib chiqadigan bo`lsak:

² 1309-yilda (708-yil hijriy) Qohirada tug`ilgan. O`z davrining yetuk olimlaridan bo`lgan. O`ziga zamondosh ilm ahllari tomonidan ko`p e`tirof qilingan. Ilmi o`z zamonasining shayxlaridan bo`lgan Abdullatif ibnul Marohhil, Ibn Sarroj, At-tajut Tabriziy va At-tajut Fakihaniy qo`lida ta`lim olgan. Ibn Hisham haqida zamondoshi ibn Xoldun shunday deydi: "Ibn Hishamning nihoyatda katta ulmi bor. Uning nahv ilmida ilmi baland. Uning ilmiga qo`shgan hissasi uning naqadar buyukligini ko`rsatadi" – deydi. Muallifning nahv, balog`at va arab adabiyotiga bag`ishlangan 30 dan oshiq qo`lyozma va kitoblari mavjud bo`lib, ularning aksar qismi Berlim va Parij kutubxonalarida saqlanadi.

³ Qo`lyozmaga ko`plab sharhlar yozilgan bo`lib, ularning eng mashhurlari: Ibn Hisham al Ansoriyning o`zining sharhi, Alxatib Ashsherbiniy tomonidam yozilgan «Mug'isun nada» sharhi, Alfakihiy tomonidan yozilgan « Mujibun nada» sharhi

1. Bir qo`lyozmada shaklida berilgan so`z ikkinchisida مثل كذا نحو كذا shaklida berilgandir. Bu ikkala so`z ham asli bir ma`noni – kabi, o`xshash ma`nolarini anglatadi. Ular orasidagi farq so`zi o`zidan keyingi taqqoslanayotgan so`z bilan har jihatdan tenglikni talab qilsa نحو مثـل so`zi esa buni talab qilmaydi⁴.

2. Qo`lyozmalarda qoidalar tatqiqi uchun berilgan Qur`on oyatlarining keltirilish o`rinlarida Qiroat imomlarining rivoyatlarida ham farqlar bo`lib, matnni o`zlashtirilishida tushunmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun ilmiy matnda eng mashhur rivoyat bo`lmish Hafsnning Osimdan qilgan rivoyati berilgan⁵.

3. Bog`lovchilardan foydalanishda ham bir qancha farqlar bo`lib, bir biri bilan ma`nodosh bog`lovchilar ishlatilgan. Masalan: bir nusxada فـلو كـان ishlatilgan bo`lsa ikkinchisida فـأـمـا xolatida, bir nusxada esa فـو كـان o`zi ishlatilgan. فـva وـ bog`lovchi bo`lib (atf) ma`nosи bir biridan katta farq qilmaydi. Bu ikkala bog`lovchi tarjima qilinganda “va” ma`nosini beradi. Lekin, فـ bog`lovchisi ikki uyshuq bo`lakni bog`lasa bog`lovchisi وـ bog`lagan bo`lak tartibni bildiradi.⁶

4. Ba`zi o`rinlarda bir qo`lyozmada birlikda foydalanilgan so`z ikkinchisida ko`plik xolatida berilgan. Masalan: Bir qo`lyozmada على الجملة المفيدة ishlatilgan bo`lsa ikkinchisida على الجمل المفيدة xolatida ishlatilgan.

Qo`lyozmalarni solishtirish, matniy tadqiq qilish qo`lyozma mohiyatini yanada tushunishga, muallifning uslubini anglashga, fanning daqiq nuqtalarigacha kirib borishga yordam beradi. Qo`lyozmadagi bu ka`bi juziy bo`lsada farqlarni bilish ularni o`rganish har bir arab tili sohasi izlanuvchisi uchun muhim ajamiyat kasb etadi. Yuqorida ko`rilgan misollar tafovutlar ko`p takrorlangan ma`lum bir qismi bo`lib, qo`lyozma to`liqligicha o`rganilishi va undagi tafovutlar tahlil qilinishi kerak.

الـذـي الـأـوـجـه إـلـا وـجـه كـلـ منـ الـمـسـاوـا ظـاهـرـهـا يـقـدـمـي "مـثـلـ" فـبـنـ؛ "ذـحـوـ" كـلـ فـظـةـ لـيـسـتـ "مـثـلـ" لـفـظـ "ذـحـوـ" وـ "مـثـلـ" بـ يـنـ الـفـرقـ⁴ إـلـا عـيـدـ دـقـيقـ يـقـيـدـ بـ ذـلـكـ تـعـطـيـ لـ "ذـحـوـ" وـ لـ فـظـةـ الـوـحدـةـ، عـنـ يـخـرـجـهـماـ بـ حـيـثـ الـاحـقـيـقـةـ تـيـنـ بـ يـنـ الـتـغـاـرـيـرـ يـقـدـمـيـ⁵

Imom Osim tobe`inlardan bo`lib, Qur`oni Karim qiroatini Zirr ibn Hubaysh va Abudlloh ibn Mas`ud (r.a.)dan olganlar. U kishi yana imom Hasan va Husayn (r.a.)larning ustozlari Abdulloh ibn Habib Sulamiydan ham Qur`oni Karim qiroatini olganlar. Bu kishi esa qiroatni hazrati Ali (r.a.)dan olganlar. U kishi Rasululloh (s.a.v.)dan olganlar. Imom Osim hijriy 129-yilda Kufada vafot etganlar. U kishining ikki roviylari: Hafs va Sho`balar bor.

إـذـ التـرـتـيـبـ، العـطـفـ وـأـوـيـ فـيـدـ لـ (وـعـمـرـوـ زـيـدـ فـازـ) : تـقـوـلـ كـانـ عـلـيـهـ، وـالـمـعـطـوـفـ الـمـعـطـوـفـ بـ يـنـ لـ اـمـشـارـكـةـ "الـأـوـاـوـ" الـأـعـطـفـ حـرـفـ يـسـتـخـدـمـ⁶ نـفـسـيـهـ الـأـنـ فـيـ مـعـاـفـ لـاـزـاـيـ كـوـنـاـنـ يـمـكـنـ كـمـاـ أـوـلـاـ، فـازـ عـمـرـوـ يـكـونـ أـنـ يـمـكـنـ أوـ لـ دـخـلـ مـنـ هـوـ الـحـارـسـ أـنـ أـيـ (فـالـمـدـيـرـ الـحـارـسـ دـخـلـ) بـتـقـوـلـ أـنـ وـمـثـلـهـ وـالـتـعـقـيـدـ بـ يـبـ مـعـ لـلـعـطـفـ: "الـفـاءـ" الـأـعـطـفـ حـرـفـ يـسـتـخـدـمـ كـبـ يـرـ زـمـنـيـ فـارـقـ دـخـولـهـماـ بـ يـنـ بـ كـنـ وـلـامـ الـحـارـسـ دـخـولـ بـ عـدـ مـاـ شـرـةـ جـاءـ الـمـدـيـرـ دـخـولـ أـنـ هـنـاـ وـالـتـعـقـيـدـ بـ يـبـ الـمـدـيـرـ تـبـعـهـ ثـمـ أـخـرـىـ جـمـلـةـ عـلـيـهـ بـ عـطـفـ وـيـ كـونـ، (فـاسـ تـرـحـتـ عـدـلـتـ) تـقـوـلـ كـانـ لـ لـسـ بـ بـ يـةـ